UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES
ISSN 2992-8826
https://sr-journals.org/index.php/UJMANS

GEOGRAFIYA TA'LIMINI INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH VA O'QUVCHILARINING KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Xodjaeva G.A.[1], Akimova V.S.[2]
[1] Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
[2]Nukus shahar 45-son o'rta ta'lim maktabi

Respublikamizda maktabgacha va maktab ta'limi tizimini zamon talablariga moslashtirish va uni ta'lim oluvchilar imkoniyatlariga mos holda tashkil etishga ko'maklashuvchi ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu dolzarb vazifalarni interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshirish zamon talabiga aylanib bormoqda. Interfaol ta'limning boshqa ta'lim xususiyatlaridan farqli jihati shundaki, bunday ta'limda o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati amalga oshiriladi. O'qituvchi darsning bosh hukmdori vazifasidan bo'shatiladi, "subyekt-subyekt" munosabatlari vujudga keltiriladi.

Ta'lim – tarbiya jarayonlarida interfaol metodlardan foydalanish masalalari XIV asrda ilgari surilgan bo'lsada, XX asrning ikkinchi yarmida ta'lim jarayonlarida ilg'or o'qituvchilar tomonidan foydalaila boshlandi.

T.S.Banina va L.N.Vavilova [1; 176-b.] lar interfaol ta'limning quyidagi afzallik tomonlarini aniqlagan:

1. Interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari – ta'lim oluvchilardagi motivatsiyani, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

2. Interfaol ta'lim muhiti ta'lim oluvchilarda muammolarni ko'ra bilish, tahlili qilish, faol hayotiy pozisyani shakllantirish, tolerantlik, o'zgalar fikriga hurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarini rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi [1, 176-b.].

Ta'limda qo'llaniladigan interfaol metodlar quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- o'quvchilarning eng muhim hayotiy ehtiyoji bo'lgan muloqot – ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi;
- o'quvchilarda faqat intellektual salohiyatini namoyish etish emas, balki kreativ qobiliyati va ijodiy izlanishlarini ham rivojlanishiga zamin yaratadi.
- interfaol ta'lim jarayonida o'quvchilarga o'zini namoyon eta olish, o'ziga nisbatan ishonch xissining uyg'onishi, mustaqil fikrlash, o'zaro muloqotga kirishish, hamkorlikda faoliyat olib borishlariga imkoniyat yaratiladi;
- o'quvchilarning kichik guruhlarda o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga ijtimoiy - psixologik jihatdan qulay muhit yaratiladi;
- o'quvchilar ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etishlari uchun o'zlashtirgan materiallarini eshitish bilan cheklanmasdan, balki, ularni tahlil qilish, o'zaro fikr almashish, o'z fikrlarini asoslashga erishish lozimligini anglaydilar.
- tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlash orqali berilgan vazifalarni talab darajasida bajarish, erishilgan natijalarni tahlil qilish, ularni asoslash, taqdim etish va boshqa guruhlar tomonidan e'tirof etishlariga erishishlari lozim [2].

Hozirga qadar ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari bo‘yicha xorijda va respublikamizda ko‘pgina olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lib, ularning barchasida zamonaviy ta’limni tashkil etish va natijadorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalarining ijobiy tomonlari ochib berilgan. Xususan, respublikamizda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan olima G.N.Ibragimova interfaol ta’limning ijobiy xususiyatlariga to‘xtalib, shunday yozadi: “Interfaol ta’lim bo‘lajak mutaxassislardagi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishning eng samarali shakllaridan sanalib, unda talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan shaxs mustaqilligi ta’minlanadi va rivojlantiriladi” [3].

Interfaol ta’lim jarayonlarida o‘quvchilarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash, mavjud muammolarni o‘zlari mustaqil hal etishlari uchun imkoniyat berish, bilimlarni oson o‘zlashtirishlari uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik bazani yaratishdan iborat bo‘ladi. Interfaol ta’lim jarayonida zamonaviy usullar, metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini oshirishga erishish mumkin.

Qisqacha qilib aytganda, interfaol ta’limda o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlari to‘laligicha namoyon bo‘ladi hamda ular ta’lim jarayonining teng huquqli sub’ektlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchilarda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratiladi.

Umumta’lim muassasalari geografiya ta’limida interfaol ta’limni tashkil etishda quyidagi bir nechta talablarga rioya etish zarur:

1. Interfal o‘qitishni tashkil etishda o‘quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlarini inobatga olish.
2. Darsning barcha bosqichlarida o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligiga erisha olish;
3. O‘quvchilarning geografik xaritalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratish;
4. Interfaol metodlarni tanlashda imkon qadar tabiiy-geografik muammolarni hal etishga qaratilgan metodlardan foydalanish;
5. O‘quvchilarda geografik joy nomlari (toponimlar)ni eslab qolishlari uchun shunga mos metodlardan foydalanish.

Geografiya ta’limida interfaol o‘qitish orqali o‘quvchilarda keng dunyoqarash, tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida yangicha bilimlar, tushunchalar hosil bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasidagi xayrihoxlik muhiti, bir-birlariga ishonch va hurmat ularning kelgusida ijodiy yuksalishlari uchun qulay imkoniyat yaratib, ulardagi kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi [4].

Interfaol ta’limni tashkil etish o‘qituvchidan kuchli bilim, pedagogik mahorat, tayanch pedagogik-psixologik bilim va tajribani talab etadi. Bunday xususiyatlarga ega bo‘lishi uchun o‘qituvchi tinimsiz o‘z ustida ishlashi, fanning eng so‘ngi yutuqlaridan xabardor bo‘lib borishi, ta’limni tashkil etishning ilg‘or texnologiyalari bilan tanishib borishi va uzluksiz kasbiy rivojlanishga erishishi lozim bo‘ladi [3].

Bugungi kunda geografiya ta’limida o‘quvchilarning yuqori o‘zlashtirish darajasiga hamda ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda turli xil interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan samarali foydalanilmoqda. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

“3 x 4” texnologiyasi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni geografiya fani doirasidagi aniq bir muammoni yoki mavzuni hal etish, yechimini topish, bildirilgan turli xil fikrlar orasidan eng maqbulini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo‘yilgan muammo yuzasidan aniq bir xulosa chiqarishga, shuningdek, o‘z fikrlarini ma’qullay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya o‘quvchilar bilan avval yakka holda, so‘ngra ularni kichik guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi. Texnologiyaning afzallik tomoni mavjud muammoni hal etishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatadi.

Ushbu texnologiyani geografiya ta’limida foydalanilganda dars mavzusi asosida “Geografiya fani –…”, “Dunyo okeani - …”, “Tabiiy geografik jarayonlar - …”, “Ekologik muammolar - …”, “Materik yonbag‘ri - …”, “Tabiiy resurslar - …”, “Global isish - …”, “Issiqxona samarasi - …” kabi mazmundagi qog‘oz varaqlarining yuqori qismida davom ettirilishi yoki fikrlar bilan to‘ldirilishi kerak bo‘lgan asosiy tushuncha yoki fikr yozilgan matnlardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil etish mumkin.

“Fikrlarning uzluksiz estafetasi” usuli ma’lum bir g‘oya, fikrni mantiqiy davom ettirishni nazarda tutadi. O‘quvchi o‘rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan fikr bildirishi, fikrlarida oddiy xulosalardan tahliliy xulosalarga o‘tish, asos keltirish talab etiladi.

“Dunyoqarashlarni shakllantirish” usuli. O‘quvlarning dunyoqarashlari, muloqot sifatining pasayishi va ijodiy vazifalarni bajarish davomida yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etish, o‘zgarish imkonini beradi. Bu usulning afzalligi shundaki, o‘quvchilarning o‘quv materiallari bo‘yicha ilmiy dunyoqarashi shakllantiriladi.

“O‘z-o‘zini rag‘batlantirish” usuli “Fikrlarning uzluksiz estafetasi” usulining mantiqiy davomi sifatida xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘lingan holda, ikkinchi guruh o‘quvchilari uchun jamoa bo‘lib savollar tayyorlashni hamda jamoa bo‘lib javob berish nazarda tutiladi. Bu esa ularda jamoaviy muhokama qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu usulning afzalligi o‘quv predmetidagi ma’lum bir bob, bo‘limni umumiy takrorlashga yordam beradi. O‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini takrorlaydilar va mustahkamlaydilar.

“Rollar almashinuvi”. Bunda hazil-mutoyiba, o‘quvchi va o‘qituvchining shaxsiy namunasi, vaziyatning o‘zgarishi pedagogik texnologiyasida alohida o‘rin tutadi. Ulardan ta’lim jarayonida foydalanish ma’lum bir son bilan chegaralanmaydi. Har qanday vaziyat yangi usullarning paydo bo‘lishiga yordam beradi va o‘qituvchi faqat shu vaziyatga eng mos keladiganlarini tanlaydi va qo‘llaydi. Usullardan foydalanish har bir talaba uchun qat’iy individual yondashuvni talab etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni yuqori sifat darajasiga ko‘tarish borasida qabul qilinayotgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarida ilgari surilgan ijodkor, keng dunyoqarashga ega, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash haqidagi g‘oyalar o‘quvchilarda kasbiy ko‘nikmalarini yuqori darajada rivojlantirish zarurligini bildiradi. Interfaol ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion o‘qitish metodlari, shakl va vositalarining ahamiyati katta. Interfaol ta’lim metodlari o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish ehtiyojidan kelib chiqib, ta’lim jarayonlarini o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etish hamda “subyekt-subyekt” munosabatlarini amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Банина Т.С., Вавилова Л.Н. Современние способи активизатсии обучения. – М.: Академия, 2008. – 176 с.
2. Genjebaeva U., Akimova V.S. Geografiya sabaǵı hám onı oqıtıwda sırt el tájiriybelerinen paydalanıwdıń mashqalaları. /“Geografiyanıń aktual mashqalaları hám rawajlanıw perspektivaları” respublikalıq ilmiy-ámeliy konferenciya materialları. Nókis. 21-22-oktyabr, 2025. 437-440 b.
3. Xodjaeva G. A. Jiemuratova G.O. Geografiya darslarida óquvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish masalalari //Янгиланаётган Ўзбекистонда география: фан, таълим ва инновация номли республика илмий амалий конференция материаллари. Т., ТДПУ. – С. 352-354.
4. Ходжаева Г.А., Жиемуратова Г.Ө. География сабақларын оқытыўда өзбетинше тапсырмаларды пайдаланыўдың әҳмийети.// Илим ҳәм жәмийет, №2,2020. 66-68 б.